

## ShASHKACHI QIZ G'ALABASI

Niyara Abdishaeva Farg'ona shahar 40-sonli ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabining 9-sinfida a'llo baholarga o'qish bilan birga sportning shashka turi bilan o'n yildan buyon shug'ullanadi. Farg'ona viloyat ayrim o'yin turlariga va engil atletikaga ixtisoslashtirilgan bolalar-o'smirlar sport maktabi tarbiyalanuvchisi xalqaro arenalarda Vatanimiz sport sha'nini munosib himoya qilib kelmoqda.

Bolgariyaning Kranevo shahrida yoshlar va xotin-qizlar o'rtasida shashka bo'yicha jahon championati bo'lib o'tdi. Unda Rossiya, Belorusiya, Ukraina, Moldova, Estoniya, Latviya kabi o'ndan ziyod davlatlardan 200 nafar saralangan sportchi ishtirok etdi.

Jahon championatida 2001-2003 yillarda tug'ilgan qizlar o'rtasida viloyatimiz vakili tezkor shashka turi bo'yicha bahslarda yuqoridagi davlatlar sportchilari bilan bahslashib, yakunda o'z yosh toifasida 2-o'rinni egallab, kumush medal sohibiga aylandi. Championatda Niyara farg'onalik Malika Xalilova bilan milliy terma jamoamizning umumjamoa hisobida faxrli 3-o'rinni egallahiga munosib hissa qo'shishdi.

Kelajagi porloq, umidli shashkachi N.Abdishaeva uchun 2017 yil omadli keldi. Uning erishgan yutuqlari salmoqli. Yil boshida sport ustasi degan nomga sazovor bo'ldi. Aprel oyida Toshkentda o'tkazilgan shashka bo'yicha respublika championatida klassik, blits va rapid yo'nalishlarining har birida 3 ta oltin medalni qo'lga kiritdi. Bundan tashqari o'ndan ortiq davlat sportchilari ishtirok etgan Osiyo championatida oltin medal Niyaraga nasib etdi.

Iqtidorli shashkachi shu yil 19-29 oktyabr kunlari Sankt-Peterburg shahrida ayollar o'rtasida o'tkaziladigan jahon championatiga tayyorgarlikni boshlab yubordi.

2017-09-28 11:14:36